

XIVA SHAHRI TOPONIMINING KELIB CHIQISHI TARIXI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI

Jumanazarova Nafosat

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqola toponimlar, ularning kelib chiqishi va ularning tarixini tahlil qiladi. Undan tashqari maqolada Xiva shahrining kelib chiqishi u haqida aytilgan afsonalar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Toponim, gidronimika, oronimika, "Xevaq", "Xiva", "Xiyvo", "Xeva", Xiyuman, Ram, Ramul, Ipak yo'li.*

Abstract: *This article analyzes toponyms, their origin and their history. In addition, the article provides information about the origin of the city of Khiva and the legends about it.*

Key words: *Toponym, hydronomics, oronymics, "Xevaq", "Xiva", "Xiyvo", "Xeva", Xiyuman, Ram, Ramul, Ipak yo'li.*

Toponimika (yun. *topos* — joy va *onyma* — ism, nom) — onomastika joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi [1]. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'y sunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saklangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma, boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi [2].

Toponimika, geografiya, tarix, bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalar)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki ba'zi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni o'zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko'pincha muayyan hududda yashagan xalqlarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponimika xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o'tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo'llari va geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Toponimlarning amaliy transkripsiysi, ularning dastlabki asosga ko'ra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi toponimikaning amaliy jihatni hisoblanadi.

Toponimlar yirik yoki mayda obyektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta obyektlar (materiklar, okeanlar, tog'lar, cho'llar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atokli otlari; mikrotoponimlar — kichik obyektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, ko'chalar, qo'rg'onlar va shu kabi) ning atokli otlari. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki ko'pincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

Turli xil geografik obyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariغا muvofiq ravishda toponimlarning quyidagi bo'limlari ajratiladi: gidronimika — suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko'l kabilarning nomlarini o'rganuvchi soha; oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko'cha, ovul, qo'rg'on nomlarini o'rganuvchi soha; oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tof, cho'qqi, qoya, qir, tepe, qiya nomlarini tekshiradigan soha; urbanonimika — shahar ichidagi har qanday obyektlar nomlarini o'rganuvchi soha; kosmonimika — Yerdan tashqaridagi obyektlar (osmon jismi) nomlarini o'rganuvchi soha. So'nggi 40—45-yil ichida toponimikaning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi, toponimika sohasida bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda rus olimlaridan V. A. Nikonorov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev, o'zbek nomshunoslaridan H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, Do'simov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. O'zbekiston toponimiysi 20-asrning 60-yillaridan ilmiy asosda o'rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand, Margilon, Qo'qon, Buxoro, Boysun, Mirzacho'l, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi, toponomiga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi. Shulardan biri Xorazm hududida joylashgan Xiva shahridir [3].

XIVA – Xorazm viloyatidagi tarixiy shahar nomlaridan hisoblanadi. U o'sha davrlarda Buyuk ipak yo'lida joylashgan bo'lib, rivoyatlarga qaraganda, Xivaning ko'hna qismi o'rnila (hozirgi Ichon qal'a o'rnila) sahro bo'lgan. Maridan Gurgan tomon (hozirgi Ko'hna Urganch) o'tadigan (hozirgi "Ipak yo'li"ning shimoliy shoxobchasi) hududda karvonlar yurgan. Bu yerdan o'tadigan yo'l bo'yida toza suv saqlanadigan Xivaq nomli quduq bo'lgan. Bo'lg'usi shaharning nomi ham ana shundan kelib chiqqan. Bu Xivaning bunyodga kelishi haqidagi rivoyatlardan biri.

Prof. Z.Do'simovning fikrlariga ko'ra, nomning etimologiyasini Xorazmiy tilidan izlamoq kerak, chunki nomning qadimiyligi buni taqozo qiladi. Xorazmiy tili bilan qarindosh deb hisoblangan osetin tilida ko'pgina xorazmiy so'zlar saqlangan. Bu toponimiyada ham o'z aksini topadi. Nuxos, Pirnaxos, Darxos toponimlari Osetiyada ham uchraydi. Shunday ekan, Xiva toponimini hozirgi Osetiya toponimiyasidagi Xiauv – "qishloq" so'zi bilan bog'lash mumkin. Demak, Xivak yoki Xiva "kichik qishloq" ma'nosini anglatadi [4].

Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda YUNESKOning umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi va "Xiva – sharq gavhari" deb e'tirof etildi. Ma'lumki, so'nggi ming

yillar davomida Xivaga tashrif buyurgan yoki uni sirtdan tadqiq etgan arab, fors, xitoy, uyg'ur, rus, venger, nemis olim va sayyohlari: Ibn Xavkal, Yokut, Ibn Batuta, M. Qoshg'ariy, V.H. Vamberi shahar haqda fikr- mulohazalarini yozib qoldirganlar. Manbalarda shaharning nomi "Qal'ai Ram-Ramul", "Qal'ai Sardoba" yoxud "Xevaq qal'asi" ertaknamo shahar deb yuritiladi. Masalan, Rim shahrining nomi ham Ram-Ramul afsonasi bilan bog'liq. Amudaryoning hozirgi nomi ko'hna Amul (Chorjo'y) shahridan olinganligi ma'lum. Amul va Ramullarning og'a-ini bo'lganligi haqidagi afsonaga quloq tutsak. Xiva va Rim shaharlarining avvalgi ismlari Ram va Ramul ekanligiga ajablanmasak ham bo'laveradi. Negaki, shaharlar bir-biridan qanchalik uzoq masofada joylashgan bo'lmasin, ularning paydo bo'lishi bir davrga to'g'ri kelishi mumkin. Afsona va tarixning bunchalik yaqinligi xalqlar o'rtasida savdo va madaniy aloqlar naqadar qadimiy ekanlididan darak beradi. Yer kurrasining turli burchaklarida "Xebe", "Xevak", Xiva, Xitoyda "Xibo" degan orol, shimoliy Osetiyadagi "Xiavu" arig'i, Eronda Xivakobod qishlog'i borligi ma'lum. Xiva toponimining etimologiyasi to'g'risida turli manbalarda turlicha fikrlar bayon qilinadi. Ba'zi olimlar Xiva qal'asining nomi "Xevaq" qudug'i nomi bilan bog'liq, "Xey-vax" esa mammuniyat, qoniqish, xitob belgisi degan fikrni bildiradilar. Yana birovlar uni "Xevak" xoli, quruq, bo'sh yoki g'ovak joy degan ma'noni bildiradi, deb taxmin qiladilar [5].

Sharqshunos I.Beryozin Xeva toponimini "Hayva" va "Xavi" so'zlari bilan bog'laydi va quruq, bo'shliq qo'rg'on deb izohlaydi. Yer yuzining 25 nuqtasida "Xi" yoki "Xe" o'zagi bilan boshlanuvchi joy, daryo, orol, shaharcha, tog' va suv manbalarining nomlari qayd etilgan. "Xiv", Xiva, Xiua, Xiva, Xila Xibingork kabi o'nlab nomlar Tinch okean havzalaridan to AQShgacha bo'lgan xududlarga tarqalgani bunga misoldir. Ushbu geografik va tarixiy nomlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, "Xi", "Xe", "Xa" so'z yasalish asosi o'zakdan 12 tasining ma'nosi suv, 6 holatda tog' -tosh, tepalik 4 tasi qal'a, qo'rg'on, qishloq yoki joy ma'nosini bildiradi. Atigi bir holatda baliq va yana birida muqaddas juftlilik, mutanosiblik ma'nolarini anglatadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqadigan ilmiy xulosa shuki, - Xiyvo dunyoning eng qadimgi qo'rg'on-qal'alaridan biri bo'lib, u "Qal'ai Ramul", "Xevaq", "Xiva", "Xiyvo" shaklida atalib kelingan va ajdodlarimizning 2-3 ming yillik tarixidan guvohlik beruvchi tabarruk shaharlardan biridir. Markaziy Osiyodagi eng go'zal va baland yodgorliklardan biri – bu Islom Xo'ja minorasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Tosh hovli majmuasi, Xivoq qudug'i qal'aning naqadar mo'jizakor shahar ekanligiga shubha qoldirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Nurjonov. "Xorazm maqol, matal, naql va iboralarning tarixiy ildizlari" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – Toshkent, 2000-yil, 138-bet.
2. Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Toshkent, 1977. 141-bet.

-
3. Abdullayev, S., & Abdullayev , O. (2023). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA IQTISODIYOT SOHASIGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKA. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1274>
4. Ikrom o'g'li, A. O. (2023). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILI LEKSIKOGRAFIYASINING BOYISH MANBALARI VA USULLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 50-52.
5. Abdullayev, O. (2022). O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA MAISHIY SOHAGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(1), 130-133.